

**TASHKENT INTERNATIONAL UNIVERSITY  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.22/29.12.2023.I.175.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**XAKIMZODA MAFTUNA YUSUF QIZI**

**INVESTITSIYA LOYIHA RISKLARINI SUG`URTALASHNI  
TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI**

**08.00.07 – “Moliya, pul muomalasi va kredit”**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent shahri – 2025-yil**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
экономическим наукам**

**Content of the dissertation abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) in  
Economic Sciences**

**Xakimzoda Maftuna Yusuf qizi**

Investitsiya loyiha risklarini sug‘urtalashni takomillashtirish istiqbollari.....3

**Хакимзода Мафтуна Юсуф кизи**

Перспективы совершенствования страхования рисков инвестиционных проектов.....25

**Khakimzoda Maftuna Yusuf qizi**

Prospects for improving the insurance of investment project risks.....47

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....52

**TASHKENT INTERNATIONAL UNIVERSITY  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.22/29.12.2023.I.175.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**XAKIMZODA MAFTUNA YUSUF QIZI**

**INVESTITSIYA LOYIHA RISKLARINI SUG`URTALASHNI  
TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI**

**08.00.07 – “Moliya, pul muomalasi va kredit”**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent shahri – 2025-yil**

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.3.PhD/Iqt2456 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tiu.uz) va "ZiyoNET" ta'lim axborot tarmog'ida (www.ziynet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

<b>Ilmiy rahbar:</b>	<b>Rajabov Sherzod Umurzoqovich</b> iqtisodiyot fanlari doktori, professor
<b>Rasmiy opponentlar:</b>	<b>Abduraxmonov Ilyos Xurshidovich</b> iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  <b>Jo'rayeva Sevara Zakirovna</b> iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori
<b>Yetakchi tashkilot:</b>	<b>G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti</b> <b>Toshkent filiali</b>

Dissertatsiya himoyasi Tashkent International University huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.22/29.12.2023.i.175.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil «15» 03 kuni soat 12 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100114, Toshkent shahri, Kichik xalqa yo'li ko'chasi, 7-uy. Tel.: (99895)131-55-55; faks: (99895)131-55-55; e-mail: info@tiu.uz

Dissertatsiya ishi bilan Tashkent International Universityning Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (44 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100114, Toshkent shahri, Kichik xalqa yo'li ko'chasi, 7-uy. Tel.: (99895)131-55-55; faks: (99895)131-55-55; e-mail: info@tiu.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «26» 02 kuni tarqatildi.

(2025-yil «04» 01 dagi 1 raqamli reyestr bayonnomasi).



**N.X. Jumayev**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**A.T. Absalamov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

**D.A. Raxmonov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi )**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurligi.** Jahonda soʻnggi oʻn yilliklar davomida turli iqtisodiy va siyosiy beqarorliklarning yuz berishi kuchayib bormoqda. Moliyaviy inqirozlar, valyuta kurslarining oʻzgarishi, siyosiy inqirozlar, iqlim oʻzgarishlari va tabiiy ofatlar kabi risklar investitsiya koʻrsatkichlariga taʼsir koʻrsatmoqda. Bunday sharoitda investitsiyalarni sugʻurtalash, kapitalni himoya qilish va investorlar daromadlarining barqarorligini taʼminlashning muhim vositasiga aylanib bormoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Savdo va Taraqqiyot Agentligi (UNCTAD) tomonidan eʼlon qilingan Jahon investitsiya hisobotiga koʻra, “jahonda toʻgʻridan-toʻgʻri xorijiy investitsiyalar 2 foizga qisqarib, 2023-yilda 1,3 trillion dollarni tashkil etdi”<sup>1</sup>. Bir nechta omillarning taʼsirini hisobga olmaganda, hisobotda ketma-ket ikkinchi yil global xorijiy investitsiyalar hajmining 10% dan koʻproq pasayishini koʻrsatib kelmoqda. Bu pasayish jahon iqtisodiyotning sekinlashuvi savdo va geosiyosiy taranglikning kuchayishi bilan bogʻliqdir. Shu sababli, bugungi kunda investitsion risklarni sugʻurtalashni joriy etish dolzarb masala hisoblanadi.

Jahon amaliyotida investitsiyalarni rivojlantirish, ularning iqtisodiy himoyasini tashkil etish, shuningdek, investitsiyalar bilan bogʻliq risklarni kamaytirish va samarali boshqarish masalalariga qaratilgan qator ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Investitsiyalarni sugʻurta qilishni rivojlantirishning asosiy yoʻnalishlari sifatida ularning tarkibiy elementlarini takomillashtirishni nazarda tutadi. Hozirgi kunda investitsiya risklarini aniqlash, investitsion jarayonlarni va risklarni boshqarish, investitsion loyihalar risklarini baholash, davlatning investitsiyalarni saqlashga boʻlgan kafolatlari, zamonaviy iqtisodiy mexanizmlar orqali investitsiyalarni himoya qilish, investitsiyalarning qaytarilishini kafolatlash usullari boʻyicha ishlar olib borilmoqda. Shunga qaramasdan, dunyo amaliyotida investitsiya loyihalarining risklarini sugʻurta qilishning nazariy va metodologik asoslari hamda uning innovatsion iqtisodiyot sharoitida rivojlanishi bilan bogʻliq boʻlgan muhim masalalariga bagʻishlangan yondashuvlarning mavjud emasligi mazkur yoʻnalishda chuqur ilmiy tadqiqotlar olib borish zarurligidan dalolat bermoqda.

Oʻzbekiston iqtisodiyoti va moliya bozorlarini yanada rivojlantirish, shu jumladan, moliya sohasi va sanoatning turli tarmoqlariga investitsiyalar jalb qilish uchun investitsiyalarni iqtisodiy kafolatlash va ularning xavfsizligini taʼminlash zarurdir. Bunda muhim qadamlardan biri bu innovatsion sugʻurta mahsulotlarini yaratish, investitsiyalarning xavfsizligini kafolatlash mexanizmlarini joriy qilish, investitsiyalarni baholash usullarini takomillashtirish, sugʻurta sohasidagi ilgʻor tajribalarni oʻrganish, shuningdek, aralash sugʻurta mahsulotlarini joriy etishga qaratilganidir. Sugʻurta xizmatlari va mahsulotlarining hajmini oshirish, sugʻurta bozorining barcha ishtirokchilari rolini kengaytirish va salohiyatli sugʻurta qiluvchilar xabardorligini oshirishga katta eʼtibor qaratilmoqda. Shuningdek, yangi Oʻzbekiston taraqqiyot strategiyasida “davlat tomonidan sugʻurta tizimini qoʻllab-

---

<sup>1</sup> <https://unctad.org/news/global-foreign-investment-weak-2023-funding-sustainable-development-sectors-drops-over-10> maʼlumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirildi.

quvvatlash ko‘lamini kengaytirish va sug‘urtalashning yangi mexanizmlarini amalga oshirish”<sup>2</sup> vazifalari belgilab berilgan. Mazkur vazifalar ijrosini ta‘minlashda investitsiya loyiha risklarini sug‘urta qilishning ijtimoiy-iqtisodiy hamda moliyaviy asoslari va mexanizmlarini takomillashtirish yuzasidan ilmiy asoslangan taklif-tavsiyalar ishlab chiqish zarurligini belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son ««O‘zbekiston 2030» strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni, 2021-yil 23-oktyabrdagi PQ-5265-son «Sug‘urta bozorini raqamlashtirish va hayot sug‘urtasi sohasini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi, 2019-yil 2-avgustdagi PQ-4412-son «O‘zbekiston Respublikasining sug‘urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi, 2024-yil 1-martdagi PQ-108-son «Sug‘urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirishning kompleks chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 5-dekabrdagi 694-son «Elektron turdagi sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi, 2020-yil 14-dekabrdagi 780-son «Elektron turdagi sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatish tartibini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi.** Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Investitsiya loyiha risklarini risklarini sug‘urtalashning nazariy asoslari va moliyaviy-iqtisodiy jihatlari xorijiy iqtisodchi olimlar David Bland, Anthony, M. & David, F., N.Yu.Kuleshov, M.Yu.Budnikov, S.O.Bolshakov, K.B.Safarov, I.A.Kadirbayev, I.M.Shor, D.A.Shelestovalar<sup>3</sup> tadqiqotlarida yoritilgan.

Mahalliy iqtisodchi olimlar: H.Sobirov, X.Shennayev, I.Abduraxmonov, Q.Qo‘ldoshev, S.Umarov, R.Azimov, T.Baymuratov, N.Mavrulova, G.Xalikulova,

---

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/5841063>.

<sup>3</sup> David Bland. Insurance: Principles and Practice. Compiled by David Bland, The Chartered Insurance Institute. Great Britain, 2008. 329 p; Anthony, M. & David, F. (1997). Financial Risk Management by Insurers: An Analysis of the Process. The Journal of Risk and Insurance, 64(2), 231-270; Кулешов Н.Ю. Зарубежный опыт страхования инвестиций. Путеводитель предпринимателя. 2011;(10):105-113.; Будников М.Ю. Развитие системы страхования инвестиционных рисков предприятия. Автореферат диссертации на соискание ученой степени Кандидата экономических наук. Москва-2008. - с – 23 стр.; Большаков С.О. Страхование инвестиционных рисков. Международный научно-практический интернет-журнал «ПРО-Экономика» Номер 8, 2018 (август) 1-6 стр.; Сафаров К.Б. (2022) Инвестиционные риски: классификация и методы их оценки. central asian journal of innovations on tourism management and finance Volume: 03Issue: 10|2022ISSN: 2660-454X 213-220 стр.; Кадырбаев И.А. (2016) Теоретические вопросы исследования инвестиционного риска, основные признаки и классификация // МИР (Модернизация. Инновации. Развитие). 2016. Т. 7. № 3. С. 181–188. Doi:10.18184/2079-4665.2016.7.3.181.188; Шор И.М., Шелестова Д.А. (2015) Инструменты оптимизации страховых тарифов страховщика // Символ науки. № 12-1. С. 207.

I.KenjayeV, S.Sherov, F.Xasanov U.Imomov, G.Adilovalar<sup>4</sup> ning tadqiqotlarida investitsiya risklarini sug'urtalashning ayrim masalalari tadqiq etilgan.

Ushbu mavzu doirasida amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlari va olib borilgan ilmiy-nazariy izlanishlarda, aynan investitsiya loyiha risklarini sug'urtalash yaxlit tadqiqot ishi sifatida tahlil qilinmagan. Mazkur holat dissertatsiya ishida tadqiq qilingan ilmiy-amaliy muammolar va ularni bartaraf etish hamda istiqbolda rivojlantirish yuzasidan ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarning dolzarblilik darajasini belgilab beradi.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Mazkur dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyoti universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida moliya, bank va hisob tizimini muvofiqlashtirishning ilmiy asoslari" mavzusi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** milliy sug'urta bozorida investitsiya loyihalari risklarini sug'urtalashni rivojlantirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari** quyidagilardan iborat:

investitsiya loyihalari bo'yicha asosiy yondashuvlar va nazariy qarashlarni o'rganish va ularni tasniflash;

investitsiya loyiha risklarini boshqarish usullarini aniqlash va baholashga yondashuvni ishlab chiqish;

investitsiya risklarini sug'urtalashning iqtisodiy asoslarini o'rganish;

investitsiya risklarini yanada samarali himoya qilishga qaratilgan sug'urta mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

investitsion risklarni sug'urtalash amaliyotini rivojlantirishning mumkin bo'lgan yo'nalishlarini tanqidiy nuqtai nazardan baholash;

investitsiya loyihalari risklarini sug'urtalashni rivojlantirish va ularning iqtisodiyotda samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

---

<sup>4</sup> Sobirov H.R. Sug'urta: 100 savol va javob. – T.: "Mehnat", 1998. – 160 b., Shennayev X.M. O'zbekiston Respublikasida sug'urta faoliyatini rivojlantirish yo'nalishlari. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – T.: 2021. – 84 b.; Abduraxmanov I.X. Teoriya i praktika straxovaniya: Uchebnik, – T.: "Iqtisod-moliya", 2019. -696 str., Qo'ldoshev Q.M. O'zbekistonda o'zaro sug'urtalashning metodologik asoslarini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – T.: – 2019. – 75 b.; Umarov S.A. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida O'zbekistonda sug'urta faoliyati rivojlanishini boshqarish. I.f.d. ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. – T.: 2012. – 49 b.; Azimov R.S. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida risklarni sug'urtalash metodologiyasini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – T.: 2022. – 86 b.; Baymuratov T.M. O'zbekistonda sug'urta faoliyati va uni soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish. I.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati.– T.: 2004. – 22 b.; Mavrulova N.A. Umumiy sug'urta sohasini rivojlantirish yo'nalishlari Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – T.: 2023. – 96 b.; Xalikulova G.T. Sug'urta tashkilotlarining innovatsion faoliyati samaradorligini oshirish yo'nalishlari. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – T.: 2024. – 96 b.; KenjayeV I.G'. Sug'urta tashkilotlarining moliyaviy resurslarini joylashtirish samaradorligini oshirish yo'llari. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – T.: TMI, 2019; Xasanov F.R. O'zbekistonda kiber risklarni sug'urtalash masalalari. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha f.d. (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2022. – 58 b; Sherov S.R. Sug'urta instituti va uni innovatsion rivojlantirish yo'nalishlari. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha f.d. (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – T.: 2019. – 64 b.; Imomov U.G'. Innovatsion iqtisodiyot sharoitida bank sug'urtasi va uni rivojlantirish yo'llari. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha f.d. (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – T.: 2020. – 53 b.; Adilova G.D. Iqtisodiy globallashtirish sharoitida sug'urta xizmatlarini takomillashtirishning yo'nalishlari. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha f.d. (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – T.: 2020. -60 b.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida O'zbekiston Respublikasi sug'urta kompaniyalarining investitsiya loyiha risklarini sug'urtalash bo'yicha faoliyati bilan bog'liq ko'rsatkichlar tizimi tanlangan.

**Tadqiqotning predmeti** investitsiya loyiha risklarini sug'urtalashdan kelib chiqadigan iqtisodiy munosabatlar tizimi hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada umumlashtirish, guruhlash, mantiqiy fikrlash, taqqoslash va omilli tahlil, ekspert baholash va prognozlashtirish kabi usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

investitsiya risklarini sug'urtalashda risklarni yakka tartibda sug'urta hodisalariga ta'sir darajalari bo'yicha sug'urta ta'rif stavkalarini hisobga olish taklif etilgan;

sug'urta shartnomalarida shartsiz franshiza bo'lgan investitsiya risklarini sug'urtalashda xarajatlarni baholash va tarif stavkalarini hisoblash usullarini joriy etish bo'yicha taklifi asoslangan;

investitsion risklarni sug'urtalash samaradorligini oshirishda sug'urta kompaniyasi javobgarligidan yuqori majburiyatlarni xorijiy agentning ro'yxatdan o'tgan hudud bo'yicha qayta sug'urta kompaniyasida sug'urtalash asosida sug'urta da'volarini ko'rib chiqish muddatini 2 barobarga qisqartirishga erishish asoslangan;

investitsion risklarni sug'urtalashda sug'urta kompaniyasida uch yil mobaynida sug'urta polisini xarid qilgan doimiy mijozlariga sug'urta turlari bo'yicha 10 foizgacha sug'urta tariflaridan tabaqalashgan imtiyozlar berish taklif etilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

kompaniyaning brutto-stavka summalarini ta'sir darajasi bo'yicha individual ravishda investitsiya risklarini hisobga olgan holda qayta hisoblash, sug'urta turiga qarab sug'urta tarif stavkalarini pasaytirish taklifi asoslab berildi;

sug'urta shartnomalarida franshiza mavjud bo'lganda brutto-stavka qiymatlarini o'zgartirish chizig'idan foydalanish bo'yicha sug'urta qoidalarini ishlab chiqish bo'yicha taklif ishlab chiqildi;

sug'urta tovonini to'lash va zarur hujjatlar to'plamini yig'ish (sug'urta hodisasi sodir bo'lganligini tasdiqlovchi)ni kutish muddatini qisqartirish maqsadida investor hududida ro'yxatdan o'tgan qayta sug'urta kompaniyasi orqali qayta sug'urta qilish taklif etildi;

kompaniyalarga sug'urta xizmatlarini oshirish uchun doimiy mijozlarga investitsiya risklarini sug'urtalash turlari bo'yicha sug'urta tariflarida tabaqalashgan imtiyozlar berish taklif qilindi.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** foydalanilgan usullar va yondashuvlar to'g'riligi, ma'lumotlarning ishonchliligi va rasmiy manbalardan olinganligi, masalan, O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi, sug'urta kompaniyalarining rasmiy saytlarida e'lon qilingan ma'lumotlari va yillik hisobotlari, mahalliy va xorijiy olimlar hamda mutaxassislar tomonidan olib borilgan tahlillar hamda xulosa va takliflarning

tegishli sug'urta kompaniyalari tomonidan amaliyotga joriy etilganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, ulardan investitsiya loyihalari risklarini sug'urtalash mexanizmlarini ishlab chiqishga qaratilgan maxsus mustaqil ilmiy tadqiqotlar o'tkazishda keng foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalardan investitsiya loyihalarini sug'urtalashni amalga oshirishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirishga qaratilgan maqsadli davlat dasturlarini ishlab chiqishda, moliyaviy qo'llab-quvvatlash, shuningdek, investitsiya loyihalari risklarini sug'urtalashning samarali mexanizmlarini takomillashtirishga bag'ishlangan normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** O'zbekistonda investitsiya loyiha risklarini sug'urtalashni rivojlantirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

investitsiya risklarini sug'urtalashda risklarni yakka tartibda sug'urta hodisalariga ta'sir darajalari bo'yicha sug'urta ta'rif stavkalarini hisobga olishga doir taklifi AJ «O'zbekinvest» sug'urta kompaniyasining "Investitsiya faoliyatini sug'urtalash" qoidalarini ishlab chiqish va joriy etishda foydalanilgan (AJ «O'zbekinvest» sug'urta kompaniyasining 2024-yil 09-apreldagi №01/2-91-son ma'lumotnomasi). Natijada, kompaniya tomonidan brutto-stavka miqdorlari qayta hisoblab chiqildi va sug'urta tarif stavkalari 25-30 foizgacha sug'urta turiga qarab kamaytirildi, provardida yig'ilgan sug'urta mukofotlari 2023-yilda 2022-yilga nisbatan 20,3 foizga oshgan;

sug'urta shartnomalarida shartsiz franshiza bo'lgan investitsiya risklarini sug'urtalashda xarajatlarni baholash va tarif stavkalarini hisoblash usullarini joriy etish bo'yicha taklifi AJ «O'zbekinvest» sug'urta kompaniyasining "Investitsiya faoliyatini sug'urtalash" qoidalarini ishlab chiqish va joriy etishda foydalanilgan (AJ «O'zbekinvest» sug'urta kompaniyasining 2024-yil 09-apreldagi №01/2-91-son ma'lumotnomasi). Natijada, kompaniya tomonidan investitsiya risklarini sug'urtalash bo'yicha shartsiz franshiza 0,1 foizdan 15 foizgacha bo'lganda kompaniya tomonidan optimal tarif stavkasini qo'llash taklif etilgan;

investitsion risklarni sug'urtalash samaradorligini oshirishda sug'urta kompaniyasi javobgarligidan yuqori majburiyatlarni xorijiy agentning ro'yxatdan o'tgan hudud bo'yicha qayta sug'urta kompaniyasida sug'urtalash asosida sug'urta da'volarini ko'rib chiqish muddatini 2 barobarga qisqartirishga doir taklifi AJ «O'zbekinvest» sug'urta kompaniyasida amaliyotga joriy etilgan (AJ «O'zbekinvest» sug'urta kompaniyasining 2024-yil 09-apreldagi №01/2-91-son ma'lumotnomasi). Natijada, kompaniyaning investitsiya shartnomalari bo'yicha sug'urta da'volarini ko'rib chiqish va hal qilishda sug'urta kompaniyasining sug'urta qoidalarini ishlab chiqishda foydalanilishi oqibatida kerakli xujjatlar majmuasini yig'ishdagi kutish muddatlari 40 ish kunidan 20 ish kunigacha qisqarishi asoslab berilgan;

investitsion risklarni sug'urtalashda sug'urta kompaniyasida uch yil mobaynida sug'urta polisini xarid qilgan doimiy mijozlariga sug'urta turlari

bo'yicha 10 foizgacha sug'urta tariflaridan tabaqalashgan imtiyozlar berishga doir taklifi AJ «O'zbekinvest» sug'urta kompaniyasida amaliyotga joriy etilgan (AJ «O'zbekinvest» sug'urta kompaniyasining 2024-yil 09-apreldagi №01/2-91-son ma'lumotnomasi). Natijada, sug'urta kompaniyasida uch yil mobaynida sug'urta polisini xarid qilgan mijozlarga 10 foizgacha (uch yil ichida sug'urta hodisasi sodir bo'lmagan bo'lsa), faoliyat yo'nalishidan kelib chiqib boshqa sug'urta mahsulotlarini xarid qilgan mijozlarga esa shu mahsulot tariflaridan 20 foizgacha tabaqalashgan imtiyozli tariflar tizimi joriy etilgan va bu kompaniya sug'urta xizmatlarining qamrovini 2023-yilda 2022-yilga nisbatan 32,6 foizga oshirgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro, 4 ta respublika miqyosidagi – jami 6 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 12 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta ilmiy maqola, shundan 4 ta respublika jurnallarida, 2 ta xorijiy jurnalda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiya hajmi 136 betni tashkil etgan.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirishda** dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va ahamiyati asoslangan, tadqiqot maqsadi, asosiy vazifalari, tadqiqot obyekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi ko'rsatilgan, ilmiy yangilik va amaliy natijalari keltirilgan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyatini ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga tatbiq etish, chop etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiya ishining "Investitsion loyiha risklarini baholash va boshqarishning nazariy asoslari" deb nomlangan birinchi bobida investitsiya loyihalari risklarining iqtisodiy mohiyati, ahamiyati va xususiyatlari, ularni tasniflash, boshqarish va baholash usullariga oid ilmiy-nazariy qarashlarning qiyosiy va tanqidiy tahlili berilgan, hamda investitsion loyiha risklarini sug'urtalashning iqtisodiy asoslari keltirilgan va tegishli xulosalar shakllantirilgan.

Umuman olganda, investitsiya loyihasi – bu daromad olish maqsadida ma'lum vaqt uchun kapital qo'yilmasini ifodalaydi. Investitsiyalarni rejalashtirish va tahlil qilishga bag'ishlangan iqtisodiy adabiyotlarda u ma'lum bir vaqt oralig'ida ma'lum maqsadlarga erishishga qaratilgan tadbirlar majmui sifatida qaraladi. Shu bilan birga, turli mualliflar ushbu tushunchaning talqiniga turlicha yondashadilar (1-jadval).

Iqtisodiy adabiyotlarda loyiha riski bu loyihani muvaffaqiyatli amalga oshirishga ta'sir etuvchi risk sifatida tushuniladi. Boshqacha qilib aytganda, loyihani amalga oshirish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan noaniqlik, ko'pincha noqulay oqibatlarga olib keladigan vaziyatlar va ularning oqibatlaridir.

**Investitsiya loyiha tushunchasiga bo'lgan ilmiy yondashuvlar<sup>5</sup>**

B.T. Kuznetsov	Bu maqsadlar tizimi bo'lib, ularning amalga oshirilishi investitsiyalarga asoslanadi, shuningdek, maqsadlarga erishish yo'lini belgilaydigan dastlabki ma'lumotlar asosida amalga oshiriladi.
V.A.Chernov	Kelajakda foyda olish maqsadida kapital qo'yimlarni amalga oshirish bo'yicha tadbirlar majmui.
S.Yu.Vasilev	Foyda/daromad olish maqsadida ma'lum bir davr uchun kapitalni har qanday investitsiya qilish
M.I.Rimer	Barcha faoliyat va tegishli harakatlar pul va resurslarni investitsiya qilish nuqtai nazaridan tavsiflangan loyiha va shu bilan bog'liq holda olingan natijalar
2019-yil 25-dekabrda O'RQ-598-sonli O'zbekiston Respublikasining "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonuni	Iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa foyda olish uchun investitsiyalarni amalga oshirishga yoxud jalb etishga qaratilgan, o'zaro bog'liq bo'lgan tadbirlar majmui

Investitsiya risklarni tasniflash bo'yicha ko'plab urinishlarning tahlili, risklarning manbalari va oqibatlarini o'rganishga doir umumiy yondashuvlarni ajratib ko'rsatishga imkon beradi (2-jadval).

**Investitsiya risklarning tasnifi<sup>6</sup>**

<b>Tasniflash xususiyati</b>	<b>Risk nomi</b>
Yuzaga kelish omili bo'yicha	Ichki
	Tashqi
Risk darajasi bo'yicha	Risksiz
	Past riskli
	O'rtacha riskli
	Yuqori riskli
Sug'urta qilish imkoniyati bo'yicha	Sug'urtalanadigan
	Sug'urtalanmaydigan
Risklarning natijaga ta'sirining xarakteri bo'yicha	Spekulyativ
	Sof
	Neytral
Tadbirkorlik faoliyati turi bo'yicha	Moliyaviy
	Huquqiy
	Ishlab chiqarish
	Innovatsion
	Vositachilik

Zamonaviy iqtisodiy nazariya hali ham investitsiya riskini aniqlashning yagona va umum qabul qilingan yondashuvga ega emas. Turli olimlar va tadqiqotchilar ushbu tushunchani turlicha talqin qilishadi, bu esa o'z navbatida risklarni baholash va ularni kamaytirish yoki bartaraf etish bo'yicha turli usullar va yondashuvlarini keltirib chiqaradi.

<sup>5</sup> Muallif tomonidan empirik ma'lumotlar va kompleks tahlil asosida tayyorlangan.

<sup>6</sup> Muallif tomonidan empirik tahlil asosida tayyorlangan

Investorning moliviy yo‘qotishlariga ta‘sir qiladigan bir qancha omillar mavjud bular, uchinchi shaxslar tomonidan o‘z majburiyatlarini bajarmasligi, mamlakatdagi siyosiy vaziyatning o‘zgarishi yoki iqtisodiy qonunchilikka o‘zgartishlar kiritilishi va boshqalar (3 -jadval).

### 3-jadval

#### Investitsiya risklarga ta‘sir etuvchi omillar tahlili<sup>7</sup>

Omillar	Tavsifi
Iqtisodiy omillar	<b>Makroiqtisodiy sharoitlar:</b> inflyatsiya, foiz stavkalari, ishsizlik darajasi. <b>Iqtisodiy o‘shish:</b> YaIM, sanoatning o‘shish sur‘atlari. <b>Valyuta siyosati:</b> valyuta o‘zgarishi, valyuta kurslari.
Siyosiy omillar	<b>Siyosiy barqarorlik :</b> hukumatdagi o‘zgarishlar, siyosiy mojarolar. <b>Qonunchilik:</b> tadbirkorlikni tartibga solish, soliqlar, litsenziyalash. <b>Geosiyosiy risklar:</b> ziddiyatlar, sanksiyalar, xalqaro munosabatlar.
Ijtimoiy omillar	<b>Ijtimoiy barqarorlik:</b> jinoyatchilik darajasi, namoyishlar, ijtimoiy norozilik. <b>Demografik o‘zgarishlar:</b> yosh tarkibi, migratsiya, iste‘molchining xohishi.
Texnik omillar	<b>Innovatsiyalar va texnologiyalar:</b> yangi texnologiyalarning sohalarga ta‘siri. <b>Infratuzilma holati:</b> transport va aloqa tizimlarining sifati.
Ekologik omillar	<b>Ekologik risklar:</b> iqlim o‘zgarishi, tabiiy ofatlar. <b>Atrof-muhitni tartibga solish:</b> atrof-muhitni muhofaza qilish qoidalari, ifloslanish uchun jarimalar.
Kompaniya omillari	<b>Kompaniyaning moliyaviy holati:</b> qarzdorlik darajasi, likvidligi, rentabelligi. <b>Boshqaruv risklari:</b> boshqaruv sifati, korporativ madaniyat, obro‘.
Bozor omillari	<b>Raqobat:</b> sohadagi raqobat darajasi, kirish uchun to‘siqlar. <b>Talab va taklifning o‘zgarishi:</b> iste‘mol tendensiyalari, mavsumiylik.

Investitsiya risklarini sug‘urtalashning mohiyati shundan iboratki, bu mexanizm iqtisodiyotning turli tarmoqlari bilan bog‘liq risklarni qoplaydi. Bunday risklarni sug‘urtalash mulkni himoya qilish va yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan yo‘qotishlar uchun javobgarlikni, shuningdek, ushbu jarayonda jarayonga jalb qilingan xodimlarning hayoti va sog‘lig‘ini himoya qilishni o‘z ichiga olishi mumkin. «Sug‘urta himoyasi, shuningdek, yangi investitsiyalarni jalb qilish, loyiha barqarorligi va kompaniyaning bozor qiymatini oshirish uchun muhim shart bo‘lib xizmat qiladigan qo‘shimcha raqobatdosh ustunlikdir»<sup>8</sup>.

Investitsiya risklarni sug‘urtalash - bu investorlarning mulkiy manfaatlarini sug‘urta hodisalari natijasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan salbiy oqibatlardan himoya qilish jarayoni. Bu jarayon ishtirokchilarning sug‘urta mukofotlari mablag‘laridan, shuningdek, qo‘shimcha resurslardan, masalan, siyosiy xavflarni sug‘urtalash uchun davlat byudjeti mablag‘laridan foydalanadigan ixtisoslashtirilgan sug‘urta tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladi. Bu jarayonda sug‘urtalovchi sug‘urta hodisasi yuz berganda naf oluvchi tomonidan ko‘rilgan zarar yoki qo‘shimcha xarajatlarning o‘rnini shartnoma shartlariga qarab qisman yoki to‘liq to‘lash majburiyatini oladi.

<sup>7</sup> Muallif tomonidan empirik tahlil asosida tuzilgan

<sup>8</sup>Будников М.Ю. Развитие системы страхования инвестиционных рисков предприятия. Автореферат диссертации на соискание ученой степени Кандидата экономических наук. Москва-2008. - с – 23 стр.

Investitsion risklarning sug'urta himoyasi mol-mulkni sug'urtalash, uchinchi shaxslar oldidagi javobgarlikni sug'urtalash va hayotni sug'urtalash kabi risklarni qamrab oladi.

#### 4-jadval

### Investitsiya risklarini sug'urtalash turlari<sup>9</sup>

Mol-mulk sug'urtasi	
Mol-mulk sug'urtasi sug'urta obyektlari bo'yicha quyidagicha tasniflanadi:	
1. Mol-mulk sug'urtasi (moddiy va nomoddiy aktivlar); 2. Investitsion risklarni sug'urtalash;	3. Bilvotisa moliyaviy risklarni sug'urtalash; 4. Moliyaviy kafolatlarni sug'urtalash; 5. Risklarni sug'urtalashning boshqa turlari.
Javobgarlikni sug'urtalash	
<p><b>Javobgarlikni sug'urta qilishda sug'urta obyekti bo'lib</b>, xo'jalik yurituvchi subyekt va uning xodimlarining har qanday harakati yoki harakatsizligi natijasida uchinchi shaxslar ko'rishi mumkin bo'lgan moliyaviy va boshqa zararlari oldidagi javobgarligi hisoblanadi. Ushbu sug'urta xo'jalik yurituvchi subyektini uchinchi shaxslarga, ham jismoniy, ham yuridik shaxslarga yetkazilgan zarar bilan bog'liq holda qonun hujjatlariga muvofiq unga yuklanishi mumkin bo'lgan moliyaviy yo'qotishlar riskidan sug'urta himoyasini ta'minlaydi. Javobgarlikni sug'urtalash bo'yicha tomonlar o'rtasidagi munosabatlar quyidagi o'zaro majburiyatlar bilan belgilanadi: sug'urtalanuvchi belgilangan sug'urta badallarini (sug'urta mukofoti) to'lashi shart, sug'urtalovchi esa sug'urtalanuvchi uchinchi shaxslarga yetkazilgan zarar uchun to'lashi kerak bo'lgan pul miqdorini qoplashi shart. Javobgarlikni sug'urtalash xo'jalik yurituvchi subyektga investitsiya risklarning muhim turlaridan sug'urta himoyasini ta'minlaydi.</p>	
Shaxsiy sug'urta	
<p><b>Shaxsiy sug'urta</b> xodimlarning hayotini sug'urtalashni, shuningdek, mehnat qobiliyatini yo'qotish, nogironlik va boshqalarni qamrab oladi. Ushbu sug'urtaning alohida turlari korxonadan jamoaviy mehnat shartnomasi va yakka tartibdagi mehnat shartnomalariga muvofiq o'z foydasi hisobidan ixtiyoriy ravishda amalga oshiriladi.</p>	

Investitsiya risklarini sug'urtalash samaradorligini baholash tashkilotga o'z aktivlari va resurslarini himoya qilish uchun sug'urtadan foydalanish qanchalik foydali va maqsadga muvofiqligini aniqlashga yordam beradigan bir qancha asosiy mezonlarni o'z ichiga oladi. Bu mezonlarga quyidagilar kiradi:

1. Sug'urta hodisasining yuzaga kelish ehtimoli. Bu investitsiya faoliyati davomida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan risklarning chastotasi va ko'lamini baholashdir. Hodisaning sodir bo'lish ehtimoli qanchalik yuqori bo'lsa, ushbu risklardan himoyalashda sug'urta shunchalik dolzarb va ahamiyatlidir.

2. Sug'urta himoyasining darajasi. Bu ko'rsatkich sug'urta summasining sug'urtalangan mulk yoki aktivlarning qiymatiga nisbati sifatida hisoblangan qoplama bilan belgilanadi. Ushbu ko'rsatkich sug'urta mumkin bo'lgan yo'qotishlarni qanchalik samarali qoplashini tushunishga yordam beradi.

3. Sug'urta tarifining miqdori. Belgilangan tarifni shu kabi sug'urta turlari bo'yicha bozordagi o'rtacha tarif darajalari bilan solishtirish. Bu sug'urta

<sup>9</sup> Mavjud ma'lumotlarga ko'ra muallif tomonidan tayyorlangan.

shartnomasining bozor sharoitlariga nisbatan qanchalik foydali ekanligini tushunishga yordam beradi.

4. Sug'urta mukofotining miqdori va uni to'lash tartibi. Sug'urtalashning umumiy qiymatini baholash, bu sug'urta mukofotining miqdori va uni to'lanish shartlariga (bir martalik yoki muntazam to'lovlar) bog'liq bo'ladi. Bu kompaniyaga sug'urtalash jarayonining moliyaviy yukini baholash imkonini beradi.

5. Franshiza miqdori. Franshiza - bu sug'urta hodisasi yuz berganda sug'urtalovchi tomonidan qoplanmaydigan summa. Franshizaning shartli (muayyan sharoitlarda qaytariladi) yoki shartsiz (shartlarga bog'liq emas) ekanligini hisobga olish muhimdir, bu sug'urta hodisasi sodir bo'lgan taqdirda qoplama miqdorini hisoblashga bevosita ta'sir qiladi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Sug'urta bozorining asosiy ko'rsatkichlari va investitsiya loyihalari risklarini sug'urtalash tahlili”** deb nomlanib, O'zbekiston sug'urta bozorining asosiy ko'rsatkichlarini tahlil qilishga bag'ishlangan. Shuningdek, investitsiya risklarini sug'urtalash bo'yicha tarif stavkalariga ta'sir etuvchi omillar ko'rib chiqilgan, hamda investitsiya risklarini sug'urtalashni jadallashtirish sharoitida qayta sug'urtalash tahlil qilingan.

O'zbekiston sug'urta bozori so'nggi yillarda barqaror o'sishni ko'rsatmoqda, bu bir qator omillar, jumladan, iqtisodiyotning liberallasuvi, moliyaviy texnologiyalarning rivojlanishi va risklarni boshqarish vositasi sifatida sug'urtaga bo'lgan qiziqishning ortishi bilan bog'liqdir. Quyida bozorning asosiy ko'rsatkichlari va tendensiyalari keltirilgan (5-jadval).

## 5-jadval

### O'zbekiston Respublikasi sug'urta bozorining tarkibi<sup>10</sup>

Sug'urta bozorining tuzilishi	31.12.2022	31.12.2023	O'zgarish, %
Sug'urta tashkilotlari soni	41	38	-7,3%
<i>shu jumladan hayot sug'urtasi</i>	8	7	-12,5%
Sug'urta tashkilotlarining umumiy ustav kapitali (million so'm)	1 884 111	2 298 572	+22,0%
Sug'urta brokerlari soni	7	8	+14,3%
Aktuariylar soni	5	5	0%
Sug'urta agentlari soni	9 155	4,736	-48,3%
<i>shu jumladan yuridik shaxslar</i>	2 625	1711	-34,8%
To'lovlarni kafolatlash jamg'armasi ishtirokchilari bo'lgan sug'urta tashkilotlari soni	25	26	+4,0%

Hozirgi kunda mamlakatimiz sug'urta bozorida jami 38 ta sug'urta kompaniyasi faoliyat ko'rsatmoqda. Hayotni sug'urtalash bo'yicha xizmatlar ko'rsatuvchi kompaniyalar soni 8 tadan 7 taga kamaydi, bu esa aholining ushbu sug'urta turining ahamiyati haqida yetarlicha xabardor emasligini ko'rsatishi mumkin. Shuningdek bu sug'urtalovchilar uchun iqtisodiy maqsadga muvofiq

<sup>10</sup> Muallif tomonidan <https://napp.uz/ru/pages/statistics-and-analysis-for-im> veb-sayti ma'lumotlari asosida tayyorlangan.


emasligini tasdiqlaydi hamda iste'molchilarning ushbu xizmat turiga bo'lgan talabini qo'shimcha tahlil qilishni talab qiladi.

6-jadval

**O'zbekistonda sug'urta xizmatlari bozorining asosiy ko'rsatkichlari<sup>11</sup>**

Ko'rsatkich	Sug'urta kompaniyalari	Sug'urta mukofotlari (mlrd.so'm)	Sug'urta qoplamalari (mlrd.so'm)	Jami ustav kapitali (mlrd.so'm)
Yil				
2019	36	2313.9	813.5	755,2
2020	40	2212	732	1439,1
2021	42	3733	1235	1545,7
2022	41	6231,7	2596,9	1884,1
2023	38	8059,7	2022,1	2299,5

Sug'urta mukofotlari, qoplamalar va zararlilik koeffitsiyent ko'rsatkichlari bo'yicha ma'lumotlar tahlili O'zbekiston sug'urta bozorida 2019-yildan 2023-yilgacha bo'lgan davrda sezilarli o'zgarishlarni ko'rsatmoqda. Bunday o'zgarishlarni mamlakatdagi iqtisodiy vaziyat nuqtai nazaridan, hamda jahon sug'urta sohasida kuzatilayotgan tendensiyalar doirasida tahlil qilish mumkindir.



**1-rasm. Sug'urta ko'rsatkichlarining dinamikasi va prognozi<sup>12</sup>**

Sug'urta sohasini rivojlantirishda faol ishtirok etayotgan "O'zbekinvest" kompaniyasi 2023-yil yakuni bo'yicha ijobiy dinamikani namoyish etib, biznes ko'rsatkichlari bo'yicha barqaror o'sishni ta'minladi.


<sup>11</sup> Muallif tomonidan <https://napp.uz/ru/pages/statistics-and-analysis-for-im> veb-sayti ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

<sup>12</sup> Muallif tomonidan <https://napp.uz/ru/pages/statistics-and-analysis-for-im> veb-sayti ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

**“O‘zbekinvest” EISK AJ investitsiya risklarini sug‘urtalash bo‘yicha ko‘rsatkichlari (million, so‘m)<sup>13</sup>**

Ko‘rsatkichlar	2018	2019	2020	2021	2022	2023
Yig‘ilgan sug‘urta mukofotlari (kompaniya bo‘yicha jami)	169,1	285,6	262,8	385,3	930,5	1053,1
To‘langan sug‘urta summalari (kompaniya bo‘yicha)	6,2	24,1	66,6	89,9	78,6	131,9
Investitsiya risklarni sug‘urtalash bo‘yicha yig‘ilgan sug‘urta mukofotlarining umumiy miqdori	2,7	3,1	19,7	32,7	42,1	50,7
Investitsiya risklar bo‘yicha sug‘urta qoplamasi	-	-	-	4,3	13,1	13,2
Investitsiya risklarni sug‘urtalash shartnomalari soni	1897	2528	3790	4724	3389	3 308
Investitsiya risklarni sug‘urtalash bo‘yicha javobgarlik miqdori	1497,4	1677,3	11070,9	21868,1	24241,8	19012,9

Kompaniyalar va investitsiya risklari bo‘yicha zararlilik ko‘rsatkichlarini tahlil qilish moliyaviy natijalar dinamikasi va sug‘urta kompaniyasi duch kelayotgan risklar haqida qimmatli ma‘lumotlarni beradi.



**2-rasm. Zararlilik koeffitsiyenti ko‘rsatkichlarining dinamikasi va prognozi<sup>14</sup>**

Investitsiya risklar bo‘yicha zararlilik koeffitsiyenti nisbati tahlili shuni ko‘rsatadiki, 2018–2020 yillarda ko‘rsatkichlar nolga teng bo‘lgan, bu ushbu sohada zararlarni to‘lab berish bilan bog‘liq davolarning yo‘qligini ko‘rsatadi, hamda riskning past darajasi va investitsiyalarni samarali boshqarishdan dalolat beradi. 2021-yilda 13,1 qiymatining paydo bo‘lishi investitsiya risklarni sug‘urtalash sohasidagi faollikning oshishi yoki noqulay iqtisodiy vaziyat bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. 2022-yilda qiymatning 31,1 ga sezilarli ko‘tarilishi, yo‘qotishlarning keskin o‘shidan dalolat beradi, bu esa investitsiyalarni boshqarish strategiyalariga e‘tibor berishni talab qiladi. 2023-yilda bu ko‘rsatkich 26,0 ga tushdi, bu vaziyatning barqarorlashuvini ko‘rsatishi mumkin, ammo ko‘rsatkichlarni yaxshilash uchun qo‘shimcha tahlillarni talab qiladi.

Investitsiya risklarni sug‘urtalash stavkalari turli omillarga qarab farq qilishi mumkin (8-jadval).

<sup>13</sup> Muallif tomonidan <https://uzbekinvest.uz/ru/analytics-statistics> sayti ma‘lumotlari asosida tayyorlangan

<sup>14</sup> Muallif tomonidan tayyorlangan.

## 8-jadval

### Investitsiya risklarni sug'urtalash stavkalariga ta'sir etuvchi omillar<sup>15</sup>

Omillar	Ma'nosi
Risklar turi	Har xil turdagi investitsiya risklari (siyosiy, valyuta, kredit va boshqalar) turli xil tariflarga ega bo'lishi mumkin. Masalan, beqaror siyosiy vaziyatga ega bo'lgan mamlakatlarda siyosiy risklarni sug'urtalash yuqoriroq stavkalarga ega bo'lishi mumkin.
Geografiya	Muayyan mintaqalar yoki mamlakatlar bilan bog'liq risklar sezilarli darajada farq qilishi mumkin. Yuqori riskli mamlakatlar yuqori tariflarga ega bo'lishi mumkin.
Qoplama miqdori	Sug'urtalanishi kerak bo'lgan summa qanchalik yuqori bo'lsa, stavka shunchalik yuqori bo'lishi mumkin.
Sug'urta muddati	Sug'urta qoplamasining muddati ham tarifga ta'sir qiladi. Qisqa muddatli polislar uzoq muddatli polislariga qaraganda boshqacha shartlarga ega bo'lishi mumkin.
Zararlar tarixi	Zararlar tarixi yomon bo'lgan kompaniyalarga yuqori stavkalar qo'llanilishi mumkin.
Franshiza	Sug'urta shartnomasi bo'yicha qoplanmaydigan zararining belgilangan pul miqdori (ma'lum chegarasi).
<b>Siyosiy risklardan sug'urtalash:</b> stavkalar sug'urta kapitali miqdorining 0,5% dan 3% gacha bo'lishi mumkin.	
<b>Valyuta riskini sug'urtalash:</b> stavkalar valyuta o'zgaruvchanligiga qarab 0,3% dan 2% gacha o'zgarishi mumkin.	
<b>Kredit sug'urtasi:</b> stavkalar kreditlash hajmining 0,1% dan 2% gacha bo'lishi mumkin.	

Franshiza sug'urta bozorida, ayniqsa qimmat turdagi sug'urta mahsulotlarida keng tarqalgan vosita hisoblanadi. Franshizaning asosiy maqsadi sug'urta xizmatlari narxini pasaytirishdir. Bunday yondashuv akvizitsion xarajatlarni kamaytirishga va sug'urta kompaniyasining samaradorligini oshirishga, shuningdek sug'urtani mijozlar nuqtai nazaridan arzonroq va qulayroq qilishga yordam beradi.

## 9-jadval


### Franshizaga qarab brutto-stavka tarifining o'zgarishi<sup>16</sup>

Franshiza, sug'urta summasidan % da	Brutto-stavka, sug'urta summasidan % da	Franshiza, sug'urta summasidan % da	Brutto-stavka, sug'urta summasidan % da
0,50%	1,77%	8,00%	0,86%
1,00%	1,77%	8,50%	0,77%
1,50%	1,76%	9,00%	0,68%
2,00%	1,74%	9,50%	0,60%
2,50%	1,72%	10,00%	0,52%
3,00%	1,69%	10,50%	0,46%
3,50%	1,64%	11,00%	0,39%
4,00%	1,58%	11,50%	0,34%
4,50%	1,51%	12,00%	0,29%
5,00%	1,43%	12,50%	0,25%
5,50%	1,34%	13,00%	0,21%
6,00%	1,25%	13,50%	0,18%
6,50%	1,15%	14,00%	0,15%
7,00%	1,06%	14,50%	0,13%
7,50%	0,96%	15,00%	0,11%

<sup>15</sup> Tadqiqot natijalariga ko'ra muallif tomonidan tayyorlangan.

<sup>16</sup> Muallif tomonidan tayyorlangan.

Amaliyotga asosan, shuni ta'kidlash mumkinki, franshiza bilan sug'urta qilish bo'yicha tajribaga ega bo'lgan mijozlar ko'pincha investitsiya risklarini sug'urtalash shartnomalarida franshiza hajmini o'zlariga moslashtiradilar va mustaqil ravishda belgilaydilar. Olingan ma'lumotlarga ko'ra, investitsiya risklarni sug'urtalash sohasidagi tariflar va qo'llaniladigan franshizalar eng yuqori hisoblanadi (3-rasm).



**3-rasm. Investitsiya risklarini sug'urtalash bo'yicha risklarning to'liq to'plami uchun franshizaga bog'liq bo'lgan tarifning brutto-stavkasi<sup>17</sup>**

Yuqorida olib borilgan tahlillar asosida shuni ta'kidlash mumkinki, franshiza sug'urta munosabatlari ishtirokchilari o'rtasida javobgarlikni taqsimlashni o'zgartiradi. Agar franshiza mavjud bo'lsa, zarar belgilangan miqdordan oshmagan taqdirda, sug'urta kompaniyasi sug'urta qoplamasini to'lashdan ozod qilinadi, shuningdek zarar uchun javobgarlikning bir qismi sug'urtalanuvchi hissasiga to'g'ri keladi. Bunday holat ikki tomonlama ta'sirga ega, jumladan: sug'urtalanuvchi uchun franshiza sug'urta xizmatlari narxini pasaytiradi, bu afzallik hisoblanadi, agar zararining ma'lum qismi sug'urtalovchi tomonidan qoplanmasa u sug'urtalanuvchi uchun qo'shimcha xarajatlarni talab qiladi. Sug'urtalovchi uchun franshiza to'lovlar miqdorini kamaytirishga imkon beradi, ammo mijozlar uchun sug'urta mahsulotining jozibadorligini kamaytirishi mumkin. Sug'urtalovchi nuqtai nazaridan, franshizani juda past belgilashdan qochish kerak, sababi bu tez-tez to'lovlarga va ma'muriy xarajatlarning oshishiga olib kelishi mumkin. Sug'urtalanuvchi kam zararlar va yirik moliyaviy yo'qotishlarni oldini olish uchun franshiza haddan tashqari yuqori bo'lmasligi kerak. Agar franshiza ikkala tomonning manfaatlariga mos keladigan bo'lsa, samarali natija beradi. Shuningdek, qonunchilikda eng kam franshiza chegarasi belgilanishi ham muhim, u eng kam mumkin bo'lgan zarar miqdoridan past bo'lmasligi kerak, bu esa shartnoma taraflari uchun adolatli shart-sharoitlarni kafolatlaydi.

O'zbekistonda qayta sug'urta bozorining rivojlanishi tahlili sug'urta kompaniyalarining qayta sug'urtalash va investitsiya faoliyati ko'rsatkichlari o'rtasida yaqin bog'liqlik mavjudligini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, mamlakatda

<sup>17</sup> Tadqiqot natijalariga ko'ra muallif tomonidan tayyorlangan.

investitsiya jarayonlarini tezlashtirish uchun qayta sug'urtalashdan to'liqroq foydalanish imkoniyatini cheklovchi bir qator omillar ham mavjuddir. Ushbu cheklovlarni bartaraf etish uchun milliy qayta sug'urtalash bozorini rivojlantirish, sug'urtalovchilarning investitsiya imkoniyatlarini kengaytirish va aholining moliyaviy savodxonligini oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar taklif etilgan.

Qayta sug'urtalash zamonaviy sug'urta biznesining ajralmas vositasidir, kamaytirish va moliyaviy barqarorligini oshirishga yordam beradi, balki sug'urta kompaniyalariga o'zgaruvchan bozor sharoitlariga moslashish, mijozlarni jalb qilish imkoniyatlarini oshirish imkonini beradi. Qayta sug'urtalash sug'urta xizmatlarining rivojlanishini jadallashtirish va sifatini oshirishda asosiy rol o'ynaydi, bu esa, o'z navbatida, investitsiya muhitini va umuman, iqtisodiy o'sishni yaxshilashga yordam beradi. Shunday qilib sug'urta xizmatlarining sifatini oshirishda va rivojlanishni tezlashtirishda qayta sug'urta muhim rol o'ynaydi, bu esa, o'z navbatida, investitsiya muhitini yaxshilashga va umumiy iqtisodiy o'sishga yordam beradi.

Dissertatsiyaning **“Investitsiya loyihalari risklarini sug'urtalashni takomillashtirish istiqbollari va asosiy yo'nalishlari ”** deb nomlangan uchinchi bobida investitsiya risklarni sug'urtalash sohasida rivojlangan mamlakatlar tajribalaridan misollar keltirilgan, hamda investitsiya loyihalari risklarini sug'urtalashni yanada takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqilgan.

